

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> ТА'ЛИМ HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODİKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYI VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODİKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

**Yakubov Abduraxmon Turayevich,**  
dotsent v.b., Qarshi davlat universiteti  
a\_yakubov@mail.ru

### TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim huquqi va ta'lim qonunchiligidan foydalanishning huquqiy jihatlari xususida barqaror qarashlarni shakllantirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyotini tezlashtirishga xizmat qiladigan avlodni tarbiyalash haqidagi fikrlar tahlili bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ta'lim huquqi, "Qonun ustuvorligi", "gender tenglik", konstitutsiyaviy normalar, qonunlar, xalqaro hujjatlar.

---

**Yakubov Abduraxmon Turayevich,**  
Acting Associate Professor,  
Karshi State University

### THE ROLE OF EDUCATIONAL LAW IN THE IMPLEMENTATION OF LEGAL LITERACY

**Annotation:** This article describes the analysis of thoughts on the formation of stable views on the legal aspects of the right to education and the use of educational legislation, the upbringing of a generation that serves to accelerate the development of New Uzbekistan.

**Keywords:** New Uzbekistan, educational law, "Rule of law", "Gender Equality", constitutional norms, laws, international documents.

---

**Якубов Абдурахмон Тураевич,**  
и.о. доцента, Каршинский государственный университет

### РОЛЬ ПРАВА НА ОБРАЗОВАНИЕ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ

**Аннотация:** В данной статье изложен анализ мыслей о формировании устойчивых взглядов на право образования и правовые аспекты применения законодательства об образовании, воспитании поколения, способствующего ускорению развития нового Узбекистана.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, право на образование, "Верховенство закона", "Гендерное равенство", конституционные нормы, законы, международные документы.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N55>

**Kirish.** So'nggi yillarida yurtimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish, uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash yo'lida dadil qadamlar tashlandi. O'zbekistonning xalqaro mavqei yanada yuksaldi. Mazkur jarayonlar yurtdoshlarimiz ong-tafakkurini o'zgartirib, xalqimizning xohish-istaklari, orzu-umidlari ro'yobga chiqqan holda, hayotimizda o'zining yorqin izini qoldirdi, imkoniyatlar eshigini ochdi.

Bu demokratik o'zgarishlar xalqimiz, avvalambor, yosh avlodning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o'ylab, milliy manfaatlarimiz yo'lida amalga oshirilmoqda. "Qonun ustuvorligi", "gender tenglik" kabi fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Milliy qonunchiligimizning yangilanishi bilan bog'liq me'yorlarni huquqiy mushohada qilish va aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi tubdan o'zgarishini talab etadi. Buning uchun inson qalbiga yo'l topish zarur. Huquqiy savodxonlik va bilimlarni amaliy hayotda qo'llay olish ko'p jihatdan huquqiy ta'limning mazmun-mohiyatiga bogliqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy ta'lim har bir shaxsning o'z huquqlarini bilishi va himoya qilishini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi[1].

Ta'lim huquqi – ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydigan, shuningdek, ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillar va standartlarni belgilaydigan huquq sohasidir.

Ta'lim huquqi ta'lim sohasidagi huquq va erkinliklarni amalga oshirish va himoya qilishni kafolatlashi bilan huquqiy tizimning muhim tarkibiy qismi sanaladi. U ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlash, sifatli ta'lim jarayoni va barcha ishtirokchilarning ta'lim manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan[2].

Ta'lim huquqi konstitutsiyaviy normalar, qonunlar, xalqaro hujjatlar, shartnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ta'lim muassasalarining huquqiy holatini, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va ta'lim sohasidagi hokimiyat organlarining javobgarligini tartibga soladi.

O'tgan davr mobaynida bu borada bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliy hayotga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning zamirida yaratilgan Kodekslar hamda bir qator qonunlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish bilan bir qatorda inson manfaatlarini ustuvor qo'yib, aholining munosib hayot kechirishini ta'minlab kelmoqda.

"Har qanday qonun hujjatini qabul qilishdan pirovard maqsad – xalqimizning turmush sharoitini yaxshilash ekanini unutmasligimiz zarur. Bu jarayondagi eng asosiy masala – qonun hujjatlarining mazmun mohiyatini ijrochilar va aholiga o'z muddatida yetkazib berish, ularni amalga oshirishni qat'iy ta'minlashdan iborat",- deya Prezidentimizning o'z nutqida ta'kidlagani ham bejiz emas. Albatta bizning hayotimizni me'yoriy-huquqiy hujjatlar tartibga solib turadi. Inson jamiyatda yashar ekan uning tartib-qoidalariga bo'ysunishi zarur albatta. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar ham o'z faoliyatlarini me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etadilar.

Me'yoriy-huquqiy hujjat bu – me'yoriy hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar ikki xil bo'lib, ular qonunlar va qonunosti hujjatlaridir. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

**Tahlil va natijalar.** Ta'limni tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslari uning faoliyatini tartibga soluvchi va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini huquqiy himoya qilishni ta'minlaydigan turli xil qonunlar, normalar va qoidalarni o'z ichiga oladi[3]. Ta'lim tashkilotining me'yoriy-huquqiy bazasining ba'zi asosiy jihatlari:

**Ta'lim qonunchiligi:** Har bir mamlakatda ta'lim sohasidagi asosiy qoidalarni belgilovchi o'z qonunlari va qoidalari mavjud. Bunga ta'lim olish huquqi, ta'lim muassasalarini tashkil etish, o'quv rejalari va o'quv dasturlari, o'qituvchilarga qo'yiladigan malaka talablari va boshqa muhim jihatlar to'g'risidagi qonunlar kiradi.

**Litsenziyalash va akkreditatsiya:** Ta'lim tashkilotlari sifati va muayyan standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun litsenziyalash va akkreditatsiya jarayonlaridan o'tishi mumkin. Bu o'quv dasturlari, xodimlar bilan ta'minlash va boshqa jihatlarini baholash tartiblarini o'z ichiga olishi mumkin.

**Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari:** Ta'lim tashkilotining huquqiy bazasi o'quvchilar, talabalar, ota-onalar va o'qituvchilar kabi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Bu sifatli ta'lim olish huquqi, so'z erkinligi huquqi, xulq-atvor qoidalari va intizom, huquqlarni himoya qilish va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin.

**Moliyaviy qo'llab-quvvatlash:** Ta'lim tashkilotlari davlat, xususiy va boshqa manbalardan moliyalashtirishlari mumkin. Normativ ta'minot ta'lim faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlash uchun moliyaviy boshqaruv, mablag'larni taqsimlash va ulardan foydalanish qoidalari va tartiblarini belgilaydi.

**Ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik:** Ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik, ayniqsa talabalar va o'qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga oid qonun va qoidalarga rioya qilishlari shart. Bunga ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash va uzatish qoidalarga rioya qilish, shuningdek, ruxsatsiz kirishni oldini olish uchun xavfsizlik choralari kiradi.

**Maxsus ta'lim ehtiyojlarini tartibga solish:** Ba'zi o'quvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lishi mumkin va ta'lim tashkiloti nizomlarida ularni qamrab olish va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish kerak. Bu shaxsiy ta'lim rejalari ishlab chiqish, ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko'rsatish va ta'lim muhitini moslashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Ta'lim tashkilotining me'yoriy-huquqiy ta'minoti uning faoliyati, ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish uchun asosdir. Bu ta'lim tashkiloti o'z vazifalari va majburiyatlarini samarali bajarishi mumkin bo'lgan barqaror va qonuniy muhitni yaratishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[4]. Respublikada mustaqillik yillarida ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari o'z o'rnida kadrlar tayyorlash ishini takomillashtirishni talab etdi. Bu davrda kadrlar tayyorlash sohasida bir necha bosqichda islohotlar amalga oshirilib, Yuqoridagi Qonun uch marta (1992, 1997, 2020 yillar) qabul qilindi.

Ularning har biri o'z davrida ta'lim tizimidagi muammolar yechimiga xizmat qildi. Shuningdek, mazkur Qonun o'tgan davr mobaynida takomillashib, mukammallashib bordi.

Ta'lim tizimining eng asosiy bosqichlaridan biri hisoblangan oliy ta'lim sohasiga ham mustaqillikning dastlabki yillaridan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan jiddiy e'tibor qaratilib, bu soha davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi "Respublikada yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni[5]ga muvofiq oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlashni yaxshilash, shuningdek, respublikaning barcha mintaqalarini ular bilan yana ham to'laroq va bir tekisda ta'minlash maqsadida Respublikadagi qator pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi.

Umuman, ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bilan boshlandi. Mazkur Qonunda ilk marta milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, ta'lim tarbiya sohasidagi ko'p asrlik an'analarga tayanildi. 1993-yil 7-mayda "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"[6]gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi tufayli avvalgisini yanada takomillashtirishga harakat qilindi. 1992–1993-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim ikki pog'onali o'qish tizimiga o'tkazildi.

**Muhokama.** O'zbekistonda mustaqillikning ilk davridan boshlab, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning o'qishi, erkin ijod qilishi uchun shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevralda "O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Hujjatda talaba yoshlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari ta'sis etildi.

Bu davrda ta'lim tizimi faoliyatini o'rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlanishicha, kadrlar tayyorlash jarayoni bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermadi. Kadrlar muammosini hal etmay turib, mamlakatda belgilangan islohotlarni amalga oshirish imkoni yo'q edi. Ta'lim sohasida islohotchilik jarayonlarini xalqaro miqyosda va mamlakatda to'plangan tajribaga tayangan holda amalga oshirishga harakat qilindi.

1992-1997-yillarda ta'lim tizimidagi islohotlarning birinchi bosqichida sohadagi muammolar, xato va kamchiliklar tufayli rejalashtirilgan ishlar amalga oshmadi. Tizim yagona konsepsiya bilan bog'lanmaganligi sababli jarayonni to'la qamrab ololmadi. Ta'lim sohasi jamiyatdagi o'zgarishlardan orqada qoldi. Shu bois, "Ta'lim to'g'risida" Qonunni yangidan qabul qilish bo'yicha tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi.

1997-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga binoan, ta'lim tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgarishlarni kiritish maqsadida, maxsus hukumat komissiyasi tuzilib, uning ishiga tegishli vazirlik va idoralar, olim va mutaxassislar jalb etildi. Natijada, 1997-yil 29-avgustda islohotlarning navbatdagi bosqichiga huquqiy asos bo'lib xizmat qilgan hamda ushbu sohada keng ko'lamli o'zgarishlar jarayonini boshlab bergan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"[7] qabul qilindi. Bu pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Oliy ta'lim quyidagi bosqichlarga – bakalavriat va magistraturaga bo'lindi.

1997-yildan ta'lim sohasida boshlangan islohot oldingi davr ta'lim tizimidan va o'sha davrda o'tkazilgan islohotlardan farq qilib, uzluksiz ta'lim tizimiga o'tishga urinishning boshlanishi bo'ldi. Bu islohotda ta'lim-tarbiya sohasida o'tmish muammolaridan xalos bo'lishga, ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirishga, ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasini zamon talablariga moslashtirishga, yuqori malakali milliy kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlashga muayyan darajada e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda keyingi yillarda davlat tomonidan yangicha fikrlaydigan kadrlar tayyorlash, yoshlarni yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga kuchli e'tibor qaratildi. Masalan, 2019-yil 23-avgustda Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda Prezidentimiz maktab ta'limi tizimini isloh qilish zaruriyatiga to'xtalib, ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir" degan fikrini alohida ta'kidlagan edi[8].

Mustaqillik yillarida ta'lim, xususan, oliy ta'lim tizimiga muayyan darajada e'tibor qaratilib, soha huquqiy bazasini mustahkamlash orqali ular faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish tadbirlari olib borildi. O'tgan davr mobaynida bu qonun bir necha marta qabul qilinib, har bir davr talabidan kelib chiqib unga qo'shimchalar kiritildi yoki yangidan qabul qilindi. Qonun amal qilingan davrda sohadagi muayyan muammolar yechimiga qaratildi. Sohada amalga oshirilgan islohotlar tufayli ta'lim tizimining har bir bosqichida o'ziga xos o'zgarishlar va yangilanishlar amalga oshirildi. Oliy ta'lim, jumladan pedagogika yo'nalishi ta'lim tizimida ham jahon mamlakatlarining bu sohadagi ilg'or tajribasidan unumli foydalangan holda talabalikka qabul qilishda test usulidan foydalanish, reyting tizimini joriy qilish, oliy ta'limni ikki bosqichiga aylantirish, iqtidorli talabalar bilan ishlash kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirildi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillaridan davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, ushbu sohaning zamon talablariga mos va xos bo'lishiga so'nggi yillarda qabul qilingan qonun qaror va farmonlarning o'rni beqiyos bo'ldi. Umuman olganda, ushbu soha haligacha davlatning asosiy e'tiborida desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu masalada amalga oshirilgan ishlar o'zining ijobiy samarasini bergan holda fuqarolarda huquqiy savodxonlik va huquqiy ongni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. 9 – son, 227 - modda.
2. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕЙ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // <http://elibrary.ru/item.asp?id=26111620>
3. <http://www.ruscenter.ru/1136.html>
4. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.1992 yildagi PF-356-son.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.05.1993 yildagi 884-XII-son.
7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.1997 yildagi 463-I-son.
8. [Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur \(president.uz\)](http://president.uz).



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).